

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

1-SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
1-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович <i>Дунёдаги демографик ривожланиш ҳолати ва истиқболлари.....</i>	4
Xudoykulov Sadirdin Karimovich, Abdurahimov Sarvar Nasrilloevich <i>Kambag'allikni qisqartirish, aholi turmush tarzini yaxshilash — farovon hayot demakdir.....</i>	18
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Musayev Bekzod Murodovich <i>Mirzacho'l iqtisodiy rayon shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari.....</i>	29
Мамадалиева Хафиза Холдаровна <i>Демографическое развитие и его влияние на экономический рост страны: теоретический и эмпирический анализ.....</i>	38
Abdullayev Asliddin Jumaydullayevich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Enhancing educational effectiveness through the application of innovative communication marketing strategies in higher education institutions.....</i>	49
Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich, Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>The role of industrial greening in ensuring economic stability in our country.....</i>	63
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, Omanova Kamola Botir qizi <i>Jizzax viloyati qishloq aholi manzilgohlari joylanishining geografik xususiyatlari (turlari va shakllari).....</i>	73
Shakarov Zafar Gafforovich <i>Иш жойлари мониторинги амалга оширишнинг хорижий давлатлар тажрибалари.....</i>	82
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich <i>Leveraging marketing strategies to boost national economic competitiveness.....</i>	91
Sherxolov Olimjon Iskandarovich, Musayev Bekzod Murodovich <i>Samarqand viloyati aholi soni dinamikasi.....</i>	100
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning iqtisodiy asoslari.....</i>	107
Asqarova Muhabbat Ibraximovna <i>Hozirgi zamon ilmiy-amaliy yondoshuvlarni innovatsion tarzda shakllantirish va rivojlantirish...</i>	116
Burxonov Sardorjon Nasulloyevich, Dustmurodov Diyorbek Xo'dayor o'g'li <i>Tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy strategiyani shakllantirish.....</i>	125
Нуманова Мадина Латиф қизи <i>Инсон капитали ва барқарор ўсиш: Ўзбекистон ҳудудларининг рақобатбардошлигини оширишдаги роли.....</i>	131
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li <i>Yaponiyada uy xo'jaligi transfertlarining iqtisodiy ahamiyati va uni O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari.....</i>	143
Ibragimova Mehrangiz Isomiddinovna <i>Ta'limda modulli o'qitish texnologiyasi.....</i>	151
Ro'ziyeva Anora Muhammadiyor qizi <i>Kompyuter jinoyatlari va kiberxavfsizlik: raqamli jamiyatda huquqiy, texnologik va ijtimoiy jihatlar.....</i>	156
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>Mehnat munosabatlarida moliya-soliq mexanizmlari orqali norasmiy bandlikni kamaytirish choralari.....</i>	165
Yunusova Ug'iloy Bolqiboy qizi <i>Ovqatlanish korxonalarida ofitsantlar xizmat sifatini oshirish.....</i>	172

YAPONIYADA UY XO'JALIGI TRANSFERTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI

To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li

*Kambag'allik va Mehnat bozori tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti*

E-mail: mirzohidh@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada uy xo'jaligi transferlari tushunchasi va uning turlari, Yaponiyada uy xo'jaligi doirasida amalga oshiriladigan avlodlararo transferlarning shakllari, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi. Yaponiyada yuzaga kelgan demografik qarish, tug'ilish darajasining pasayishi va aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar fonida oilaviy transferlarning ahamiyati sezilarli darajada ortgani ko'rsatiladi. NTA(National Transfer Accounts) yondashuvi asosida Yaponiya tajribasi oila ichidagi resurslar taqsimoti va avlodlararo o'zaro bog'liqlikni iqtisodiy jihatdan o'lchash imkonini bergani ilmiy asosda yoritiladi. O'zbekiston sharoitida bu tajribaning tatbiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlari, jumladan, demografik yuklamaga tayyorgarlik, uy xo'jaligi statistikasi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va davlat siyosatini diversifikatsiyalash bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Maqola o'zaro bog'liq demografik, iqtisodiy va madaniy omillar kesimida ilg'or tajribani milliy kontekstda tatbiq etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Avlodlararo transferlar, uy xo'jaligi transferlari, Yaponiyaning demografik siyosati, NTA (National Transfer Accounts), aholining qarishi, ijtimoiy himoya tizimi, oila ichidagi resurslar taqsimoti, davlat va xususiy transferlar, iqtisodiy hayot davri, oya-koko, sandwich generation(sendvich avlod).

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF HOUSEHOLD TRANSFERS IN JAPAN AND THE POSSIBILITY OF ITS IMPLEMENTATION IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN.

Turaev Mirzokhid Khashim ugli

*basic doctoral student of the Institute for
Poverty and Labor Market Research*

Abstract: This article analyzes the concept and types of household transfers, as well as the forms, economic roles, and social functions of intergenerational transfers within households in Japan. It demonstrates that in the context of demographic aging, declining fertility rates, and changes in the age

structure of the population, the significance of family transfers in Japan has increased substantially. Utilizing the National Transfer Accounts (NTA) approach, the study scientifically examines how Japan's experience enables the measurement of intra-household resource allocation and intergenerational interdependence in economic terms. The article further explores how this experience can be applied to the context of Uzbekistan, including proposals related to preparing for demographic burden, improving household statistics, strengthening social solidarity, and diversifying state policies. By considering interconnected demographic, economic, and cultural factors, the article reveals the potential for adapting advanced practices to the national context.

Key words: Intergenerational transfers, household transfers, Japan's demographic policy, NTA (National Transfer Accounts), population aging, social protection system, intra-household resource allocation, public and private transfers, economic life cycle, oya-kōkō, sandwich generation.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСФЕРТОВ ДОМАШНИХ ХОЗЯЙСТВ В ЯПОНИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ВНЕДРЕНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.

Тураев Мирзохид Хошим угли

базовый докторант Института исследований
бедности и рынка труда

Аннотация: В данной статье анализируются понятие и типология трансфертов домашних хозяйств, а также формы, экономические и социальные функции межпоколенческих трансфертов, осуществляемых в рамках домашних хозяйств в Японии. Показано, что на фоне демографического старения, снижения уровня рождаемости и изменений в возрастной структуре населения значение внутрисемейных трансфертов в Японии существенно возросло. На основе подхода NTA (National Transfer Accounts) научно обосновано, что японский опыт позволяет количественно оценить распределение ресурсов внутри семьи и межпоколенческую взаимосвязь в экономическом измерении. Рассматриваются возможные аспекты применения данного опыта в условиях Узбекистана, в частности, предложения по подготовке к демографической нагрузке, развитию статистики домашних хозяйств, укреплению социальной солидарности и диверсификации государственной политики. Статья раскрывает возможности адаптации передового опыта в национальном контексте через призму взаимосвязанных демографических, экономических и культурных факторов.

Ключевые слова: Межпоколенческие трансферты, трансферты домашних хозяйств, демографическая политика Японии, NTA (National Transfer Accounts), старение населения, система социальной защиты, распределение ресурсов внутри семьи, государственные и частные трансферты, экономический жизненный цикл, оя-коко, «сэндвич»-поколение.

Kirish. Uy xo'jaligi transfertlari — bu biror uy xo'jaligi a'zosi yoki bir uy xo'jaligidan boshqasiga naqd pul, natura yoki xizmat shaklida ixtiyoriy ravishda beriladigan moliyaviy yordam yoki resurs uzatishidir. Bu transfertlar odatda ish haqi yoki tovar-xizmatlar almashtuvi uchun emas, balki qarindoshlik, g'amxo'rlik yoki majburiyat asosida amalga oshiriladi. Uy xo'jaligi transfertlari ikki asosiy toifaga bo'linadi: xususiy (private transfers) va davlat transfertlari (public transfers). Xususiy transfertlar o'z navbatida inter-household (uy xo'jaliklariaro) va intra-household (bir uy xo'jaligi ichidagi) transfertlarga bo'linadi. Yaponiyada avlodlararo transfertlar, ya'ni yoshlar va keksalar o'rtasidagi iqtisodiy oqimlar natijasida yuzaga keladi.

Hayotiy sikl gipotezasi (Modigliani va Brumberg)ga ko'ra, odamlar yoshligida kam ishlab, mehnat yoshida ko'proq ishlab topadilar va qarilikda avvalgi jamg'armalar hisobiga yashaydilar. Bu nazariya Yaponiyadagi avlodlararo transfertlar tizimini tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ogawa va Matsukura (2005) demografik o'zgarishlarning iqtisodiy yuklamasi ortib borayotganini va davlat transfertlariga muqobil sifatida oilaviy transfertlarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi[1]. Takayama (2001) esa pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xususiy jamg'armalar va oilaviy ko'mak tizimlarini takomillashtirish zarurligini ilgari surgan[2].

Yaponiyada yuzaga kelgan demografik o'zgarishlar, xususan, aholining qarishi, tug'ilish darajasining pasayishi va oilaviy tuzilmalarning o'zgarishi jamiyatda avlodlararo transfertlarni qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Bu sharoitda uy xo'jaligi ichidagi avlodlararo transfertlarning (ya'ni, oila a'zolari o'rtasida moliyaviy, moddiy va xizmat ko'rsatish shaklidagi ko'mak) roli sezilarli darajada ta'sir eta oladi. Avlodlararo transfertlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki madaniy meros, ijtimoiy birdamlik va avlodlar davomiyligini saqlashda ham muhim vosita hisoblanadi[3].

Yaponiya aholisi qarib borayotgan jamiyatlar ichida eng yetakchilardan biridir. 2023-yil holatiga ko'ra, aholining 29,1 foizi 65 yoshdan oshgan[4].

Mehnatga layoqatli aholining qisqarishi va tug'ilish darajasining 1,3 darajasiga tushib qolishi[5] oilaviy iqtisodiy yuklamalarni kuchaytirib, avlodlararo yordam tizimlarining muhimligini yanada yaqqol ko'rsatadi.

Avlodlararo transfertlar ikkita asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

a) Yuqoridan pastga yo'nalgan transfertlar: Keksa avlod o'z farzandlariga uy-joy, ta'lim, turmush qurish va bolalarni parvarishlashda moliyaviy yordam ko'rsatadi[6].

b) Pastdan yuqoriga yo'nalgan transfertlar: Yoshlar ota-onalariga yoki buva-buvalariga xizmat ko'rsatish, parvarish va moddiy yordam ko'rinishida ko'maklashadi. Bu ko'pincha madaniy qadriyat sifatida amalga oshiriladi[7].

Yaponiya iqtisodida avlodlararo transfertlar quyidagi sohalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi:

1) Pensiya tizimi va qarib borayotgan aholiga ta'minot

Ishlayotgan avlod tomonidan to'lanadigan soliqlar va ijtimoiy sug'urta badallari orqali pensiya tizimi moliyalashtiriladi. **NTA (National Transfer Accounts)** ma'lumotlariga ko'ra, 65 yoshdan yuqorilar daromadlarining 70% gacha qismini transfertlar (asosan davlat transfertlari) orqali oladi[8]. Shu sababli qo'shimcha yordamni pastdan yuqoriga yo'nalgan transfertlardan oladilar.

2) Sog'liqni saqlash va parvarish xizmatlari

- Yoshi katta avlod sog'liqni saqlash xizmatlaridan ko'proq foydalanadi. Bu xizmatlarning katta qismi davlat budjeti va yosh avlod to'lovlari hisobidan moliyalashtiriladi.

- **Katta yoshdagilar parvarishi** (long-term care insurance) ham davlat va oilaviy transfertlarga asoslanadi.

3) Ta'lim va inson kapitaliga investitsiya

- Yaponiyadagi ota-onalar farzandlariga katta miqdorda xususiy transfertlar qiladi: bu maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda ko'zga tashlanadi.

- Davlat tomonidan ham ta'lim uchun subsidiyalar, stipendiyalar, grantlar shaklida transferlar amalga oshiriladi.

Bu orqali **kelajakdagi ishlab chiqaruvchilar va soliq to'lovchilar** – ya'ni yosh avlodga investitsiya qilinadi.

4) Uy xo'jaligi darajasidagi o'zaro yordam tizimi

- O'zaro oilaviy yordam (yoshlar ota-onasiga qarash, ota-onalar farzandlarni moddiy ta'minlashi) – norasmiy transfertlar asosida ishlaydi.

- Bu tizim ayniqsa pandemiya davrida ijtimoiy xavfsizlik tarmog'ining muhim qismini tashkil etdi.

- Yaponiyada odatda ota-onalar farzandlariga uy-joy xaridida yoki to'y xarajatlarida yordam beradi.

5) Uy-joy mulkini avlodlararo o'tkazish

- Avlodlararo moliyaviy aktivlar (uy, yer, omonatlar) meros orqali o'tadi, bu esa jamiyatda boylikning bir avloddan boshqasiga o'tishini ta'minlaydi.

- Hukumat bu jarayonni tartibga solish uchun **meros solig'i** siyosatini kuchaytirgan, chunki bu **tengsizlikni kamaytirish**da ham vosita bo'ladi.

6) Mehnat bozoriga ta'siri

Avlodlararo transfertlar mehnat bozoriga murakkab va ikkiyoqlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, ular oilaviy barqarorlikni saqlaydi va mehnatni rag'batlantirishi mumkin. Boshqa tomondan, ortiqcha yordam yoki noto'g'ri yo'naltirilgan siyosat mehnatga motivatsiyani susaytirishi mumkin. NTA tizimi bu ta'sirlarni aniq sonlarda o'lchash va mehnat siyosatini demografik strukturaga mos ravishda ishlab chiqish imkonini beradi.

NTA tizimi asosida Yaponiyadagi avlodlararo transfertlar tahlili.

National Transfer Accounts (NTA) yondashuvi – bu aholining turli yosh guruhlarida iste'mol va daromad o'rtasidagi tafovutlarni iqtisodiy jihatdan o'lchash, shuningdek, avlodlararo resurslar oqimini tahlil qilish imkonini beradigan hisob-kitob tizimidir. Bu yondashuv aholining iqtisodiy hayot siklini – ya'ni insonning tug'ilishdan to qariguniga qadar iste'moli va ishlab chiqaradigan daromadi qanday o'zgarishini aniqlash orqali, turli yoshdagi guruhlar o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni aniq ko'rsatib beradi (Lee & Mason, 2011).

Yaponiya tajribasida NTA yondashuvi orqali quyidagi asosiy xulosalar iqtisodiy asosda o'lchab berilgan:

1. Avlodlararo o'zaro bog'liqlikning kvantifikatsiyasi:

Yaponiyada yoshlar (0-24) va keksalar(60+) iste'mol daromadidan ancha yuqori bo'lib, ular sof resurs oluvchilardir. Mehnatga layoqatli guruh (25-59) esa resurs ishlab chiqaruvchisi va uzatuvchisi sifatida oila ichidagi va davlat orqali amalga oshiriladigan transfertlarning asosiy manbaidir. NTA yondashuvi bu oqimlarni sonli ko'rsatkichlar bilan aniq hisoblab beradi, bu esa resurslar qanday taqsimlanayotganini ilmiy asosda ko'rsatadi.

2. Oilaviy transfertlarning makroiqtisodiy tahlili:

NTA metodologiyasi yordamida Yaponiyada oilaviy transfertlarning ulushu yalpi ichki mahsulotga nisbatan baholanadi. Bu xususiy transfertlar ko'pincha davlat transfertlariga qaraganda sezilarli bo'lib, avlodlararo iqtisodiy bog'liqlikda oila institutining ahamiyatini ochib beradi. Ayniqsa qarib borayotgan jamiyatda bu ko'rsatkichlar makroiqtisodiy barqarorlik uchun muhimdir (Ogawa et al., 2010).

3. Resurs taqsimotining tenglik va barqarorlik nuqtai nazaridan tahlili:

Yaponiyada demografik qarish jarayoni kuchaygani sayin, NTA yondashuvi orqali mavjud siyosatlarining avlodlararo tenglikka ta'siri baholandi. Xususan, keksa avlodga yo'naltirilayotgan davlat resurslarining ulushi ortib borayotgan bo'lsa-da, bu holat yosh avlodga kelajakda soliq yukining oshish xavfini tug'dirishi mumkin. Shunday qilib, NTA avlodlararo barqarorlikni iqtisodiy model asosida baholash imkonini beradi (Takayama, 2001).

4. Politika ishlab chiqishda NTA modelining qo'llanilishi:

Yaponiya hukumatining pensiya islohotlari, sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlar va yosh oilalarga yordam dasturlarini shakllantirishda NTAdan olingan ko'rsatkichlar asos bo'lib xizmat qilgan. Bu yondashuv orqali qaysi yosh guruhga qancha subsidiya, soliq yoki transfer yo'naltirilayotgani aniq ko'rsatilib, siyosiy qarorlar shaffoflikka asoslangan holda qabul qilingan.

5. Oilaviy kontekstdagi o'zgaruvchan dinamikani o'lchash:

NTA yondashuvi nafaqat davlat va jamiyat darajasidagi resurs oqimini, balki oila ichidagi iqtisodiy munosabatlarni ham modellashtiradi. Yaponiyada bu orqali "sandvich avlod" fenomeni (ya'ni ikki tomondan – farzandlar va keksalarga transfert berayotgan avlod) miqdoran aniqlangan va unga nisbatan yordam mexanizmlari (masalan, soliq imtiyozlari, parvarish xizmatlari) ishlab chiqilgan.

Yaponiya Milliy Transfert Hisobi (NTA) asosida har bir yosh guruhining ishlab chiqarish, iste'mol va transfertlar muvozanati hisoblab boriladi. Ushbu yondashuv Yaponiya Milliy Aholi va Ijtimoiy Xavfsizlik Tadqiqot Instituti tomonidan qo'llaniladi[9].

- Yaponiyada NTA tizimi asosida aholining iqtisodiy hayot sikli davomida ishlab topish, iste'mol va transfertlar oqimi tahlil qilinadi;
- 0–24 yoshgacha bo'lganlar iste'moli ularning daromadidan ancha yuqori bo'lib, ular asosan davlat va xususiy (oilaviy) transfertlar hisobiga yashaydi;

- 25–59 yoshdagilar mehnatga layoqatli va yuqori daromadli guruh bo'lib, ular nafaqat o'z ehtiyojlarini, balki bolalar va keksalarning iste'molini ham qoplaydi;

- bu yoshdagilar oilaviy transfertlarning asosiy donoridir;

- 60 yoshdan yuqori aholining iste'moli ularning ishlab topgan daromadidan yuqori bo'lib, ular davlat pensiyalari (ijtimoiy transfertlar) va farzandlaridan keladigan oilaviy transfertlar hisobiga yashaydi;

- NTA ma'lumotlariga ko'ra, Yaponiyada oilaviy transfertlarning hajmi xususiy sektor ichida katta rol o'ynaydi va ayniqsa keksa avlodni qo'llab-quvvatlashda muhim omildir;

NTA tahlilidagi grafiklarda 30–59 yoshdagilar tomonidan yuqoriga (otonalarga) va pastga (farzandlarga) ikki yo'nalishda transfertlar amalga oshirilayotganligi ko'rsatiladi; bu esa sandwich avlod(sandwich generation)ga iqtisodiy yukni ifodalaydi; shuningdek, transfertlarning qiymati va hajmi yosh bo'yicha farqlanadi:

masalan, 0–4 va 70–79 yosh guruhlari eng yuqori net iste'molchilar hisoblanadi; davlat transfertlari asosan keksalarga qaratilgan bo'lsa, xususiy transfertlar bolalar va qarindoshlar o'rtasida taqsimlanadi; Yaponiya demografik qarish davriga kirganligi sababli, avlodlararo transfertlar barqarorlik va avlodlararo tenglikni ta'minlashda markaziy o'rinni egallaydi.

Xulosa va takliflar.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, avlodlararo transfertlar nafaqat ijtimoiy himoya va aholi farovonligini saqlash, balki **ishchi kuchining qayta ishlab chiqarilishi, iste'molning barqarorligi, tengsizlikni yumshatish**, va **moliyaviy barqarorlikni ta'minlash** kabi hamda ijtimoiy birdamlik va madaniy barqarorlikning ham asosiy iqtisodiy funksiyalarini bajaradi. Davlat va oilaviy transferlarning muvozanatli ishlashi Yaponiya iqtisodiy barqarorligining poydevoridir.

Yaponiyaning avlodlararo transfertlar tajribasi O'zbekiston uchun bir necha jihatdan foydali bo'lishi mumkin:

- Aholining qarishiga tayyorgarlik: Hozircha O'zbekistonda demografik dividend saqlanayotgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda aholi qarish jarayoni boshlanishi mumkin. Shu sababli, Yaponiyada shakllangan uy xo'jaligi yordam tizimlarini tajriba sifatida o'rganish lozim.

- Uy xo'jaligi statistikasi va monitoringi: NTA tizimini bosqichma-bosqich O'zbekistonda joriy qilish orqali uy xo'jaligi ichidagi transfertlar va yoshlar-xarajatlar tahlilini rivojlantirish mumkin.

- Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash: Yaponiyada mavjud "oya-koko" qadriyati singari, O'zbekistonda ham avlodlar o'rtasidagi hurmat va yordam tamoyillari kuchli. Bu ijtimoiy kapitalni rivojlantirish orqali iqtisodiy muammolarning bir qismini yumshatish mumkin.

- Davlat va xususiy transfertlar integratsiyasi: Davlat pensiya tizimi, sog'liqni saqlash tizimi oilaviy ko'mak tizimlari bilan uyg'unlikda ishlashi kerak. Bunday yondashuv Yaponiyada muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda aholining yosh tarkibi hali salbiy demografik yuklama yaratmagan bo'lsa-da, hozirdanoq yapon tajribasini o'rganish va milliy kontekstga moslashtirish orqali barqaror siyosat ishlab chiqish foydadan holi bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ogawa, N., & Matsukura, R. (2005). *Aging in Japan: The Health and Wealth of Older Persons*. NTA Working Paper Series.
2. Takayama, N. (2001). *The Japanese Social Security System*. University of Tokyo Press.
3. Traphagan, J. W. (2003). *The Practice of Concern: Ritual, Well-being, and Aging in Rural Japan*. University of North Carolina Press.
4. Statistics Bureau of Japan. (2023). *Population Estimates*. Tokyo: Ministry of Internal Affairs and Communications.
5. National Institute of Population and Social Security Research. (2023). *Population Projections for Japan*. Tokyo.
6. Noguchi, H. (2016). *Intergenerational Transfers and Support in Japanese Households*. *Journal of Population Studies*, 39(2), 115–134.
7. Long, S. O. (1999). *Families, Elder Care, and the Social Contract in Japan*. In Rosenberger, N. (Ed.), *Japanese Sense of Self*, Cambridge University Press.
8. Ogawa, N., Mason, A. (2011). *Population aging and intergenerational transfers: Introducing age into national accounts*. Springer
9. National Transfer Accounts Project. (2020). *Japan Country Report*. East-West Center & Nihon University.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

